



**1991-yildan
chiqa boshlagan**

2023-yil. 11-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

**LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

AVAR SHOIRI RASUL HAMZATOV TAVALLUDIGA 100 YIL



Ushbu sonda



TAHLIL

Pushkin va Cho'lpox

3
bet



TILSHUNOSLIK

Madaniyatlararo
muloqot kompetensiyasi
rivojlanishidagi asosiy
nazariyalari

10
bet



TADQIQOT

Hayvon xatti-
harakati ishtirok
etgan maqollarning
lingvomarkaz
xususiyatlari

20
bet



ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Тема любви в лирике
Чулпана

54
bet

kerak. Ana shu bosqichlarni bosib o'tgan har bir inson ishqning asl mohiyatini anglab yetadi. Suvrati-yu siyrati shu istiloh bilan orom topadi va qalban unga tobe bo'la-di. Lutfiy she'riyatida ana shunday xayoloti hamda butun vujudida haqiqiy ishq makon tutgan lirik qahramon-ning siyrati haqqoniy va ta'sirchan bo'yoqlarda mahorat bilan tasvirlangan.

Mazkur baytda shoir ishq dardiga yo'liqqan oshiq holatining tasvirini bergen. Ya'ni, baytning dastlabki misrasida oshiq Layli timsoliga murojaat qilib, holidan xabar olish uchun hech bo'limganda xayolini yuborishni iltimos qilayotgan bo'lsa, ikkinchi misrasida yorning ishq oshiqning ahvolini Majnunning holidan ham bat-tar yomon ahvolga solgani tasvirlangan. Aytish joizki, bayt zamirida ishqning ham dunyoviy, ham diniy talqini aks etganini ko'rish mumkin. Chunki, shoir lirikasida ancha keng o'rin tutgan dunyoviy mavzular ayni paytda, diniy-tasavvufiy mavzular bilan uyg'unlashib, bir-birini

to'ldirib keladi. Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil qiladi. Bu o'rinda shoir Layli timsolini suyukli yor ma'nosida qo'llagan.

Xullas, shoirlar ijodida qo'llangan Layli timsoli xu-susida ko'plab mulohazalar bildirish mumkin. Chunki bu obraz ular ijodida rang-barang ma'no-mohiyat kasb etganligi bilan ajralib turadi. Lutfiy va H.Xorazmiy she'riyatida qo'llangan Layli timsoli o'zi anglatgan maz-mun-mohiyati bilan g'azal badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, u shoirning ichki kechinmalari va xohish-istiklarini namoyon eta olgan. Ta'kidlash joizki, Lutfiy hamda Hofiz Xorazmiy Layli timsoli misolida ajdodlar merosining avlodlar yodida saqlanib qol-ishiga munosib hissa qo'shgan. Bugungi ijodiy jarayonda bu kabi obrazlar deyarli ko'zga tashlanmaydi. Shoir va yozuvchilarimiz ijodiy ishlarida mazkur timsollarga murojaat qilsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1996.
2. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. – Toshkent: Sharq, 2007.
3. Erkinov S. Lutfiy. Maqola // Ma'naviyat yulduzları. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.
4. Lutfiy. Devon / Erkinov S. So'zboshi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2012.
5. Mullaxo'jayeva K. Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
6. Ochilov E. Majnun – Haq oshig'i // Navoiyga armug'on (Maqolalar to'plami). 4-kitob. – Toshkent, 2004.
7. Yusupova D. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
8. Shamsiyev P. Alisher Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: Fan, 1972.
9. www.xabar.uz

Ruxsora MURODOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

MIRZO OLIM DEVONA VA UNING "RAVZAYI ASROR" DOSTONI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mirzo Olim Devona va uning "Ravzayi asror" dostoni haqida so'z boradi. Asarning ikki qo'ly-ozma nusxasi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: yusufnomalar turkumi, qo'lyozma, Tavrot, Zabur, Qur'oni Karim.

Annotation. This article talks about Mirza Olim Devona and his epic "Rauza asror". Information about two handwritten copies of the work is provided.

Keywords: Yusufnama series, manuscript, Torah, Psalms, Holy Qur'an.

Аннотация. В этой статье рассказывается о Мирзе Олиме Девоне и его эпосе «Рауза асрор». Приведены сведения о двух рукописных экземплярах произведения.

Ключевые слова: серия Юсуфнама, рукопись, Тора, Псалмы, Священный Коран.

Mustaqillik davri adabiyotshunosligida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijod qilgan ma'rifatparvar ijodkor-lar adabiy merosini o'rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi, ammo bu davr adabiyotida tadqiqotchilarni kutayotgan mavzular talaygina ekani ham ayni haqiqatdir. Bu boradi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlagani kabi: "... avvalo xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan

buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko'zdautilgan" ana shunday ijodkorlardan biri Mirzo Olim Devona Samarcandiy hayoti va ijodiy merosi kommunistik mafkura sharoitida xolis va to'laqonli tadqiq etilmaganidek, mustaqillik davrida ham qayta o'rganilgan emas. Shu bois ham Mirzo Olim Devonaning "Ravzayi asror" dostoni qo'ly-

ozmalarini qiyosiy-matni o'rganish, adabiyotshunosligimiz erishgan bugungi yutuqlar asosida dostonning poetikasini tadqiq qilish va adabiyot ixlosmandlariga tanishtirish zarurati mavjud.

Mirzo Olim Devona XIX asrning ikkinchi yarmida Zarafshon vodiysida yetishgan iste'dodli shoirlardan biridir. Ammo o'tgan asr davomida uning nomi ham, asarlari ham turli sabablar tufayli noaniq va mavhum holda ilmiy jamoatchilik e'tiboridan chetda qolib, keng kitobxonlar ommasiga noma'lum bo'lib keldi.

"O'zbekiston RFA Sharq qo'lyozmalari to'plami"ning VII jildida, "O'zbek Qomusl"ning VIII jildida, Botirxon Valixo'jayevning "O'zbek epik poeziyas tarixidan" hamda V.Abdullayev va B.Valixo'jayevlarning "Miriy va uning zamondoshlari" kitoblarida Olim Devonanining mang'it amirlaridan bo'lmish Amir Muzaffar hukmronlik qilgan davrda (1860–1885) amirlikda miroxur lavozimida xizmat qilganligi va "Ravzayi asror" qissasining muallifi ekanligi to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltirilgan, xolos.

"Ravzayi asror" qissasining 2 nusxasi bizgacha yetib kelgan bo'lib, ular O'zbekiston RFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida 1799- va 1338-raqamlar ostida saqlanmoqda. 1799-raqamli qo'lyozma matni nastaliq xatida och sariq rangli yupqa qo'qon qog'oziga oddiygina bitilgan. Kitobning hoshiyalarda qo'shimcha tuzatishlar mavjud. Qo'lyozma 211 varaq, 422 sahifadan iborat bo'lib, har bir sahifada 11 qatorda 22 misra, ya'ni 11 bayt ikki ustunda ixcham holda joylashtirilgan. Qo'lyozma kotibi va ko'chirilgan yili noma'lum. Ammo qo'lyozma XIX asrning ikkinchi yarmi boshlarida, ya'ni asar yozilgan 1861–1862-yillarda kitob qilingan, degan xulosaga kelish mumkin.

Dostonning ikkinchi qo'lyozma nusxasi 1904-yilda Sayyid Amir Abduahadxonning homiyligida zeb-ziynatlangan nodir nusxada qo'shimcha o'zgarishlar bilan qayta kitobat qilingan. Bu 1338-raqamli noyob qo'lyozmadir. Bu qo'lyozma qattiq karton bilan muqovalangan, unga o'yma naqshlar bilan zeb-ziynat berilgan hamda yaxshi saqlangan. Qo'lyozma 212 varaq, 424 sahifadan iborat. Sahifalar oltin va turli rangli chiziqlar bilan hoshiyalangan. Asar nastaliq xatida qunt bilan qora siyohda bitilgan. Qo'lyozma kotibi noma'lum, ammo matnda xatolarga yo'l qo'yilmagani va hoshiyalarda tuzatishlar ko'zga tashlanmaganidan kotib o'ta savodli bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Asarning badiiy qiymati va sujetiga keladigan bo'lsak, Sharq adabiyotida IX asrdan boshlab "Yusuf va Zulayho" sayyor sujeti asosida 150 dan ortiq doston va qissalar yaratilgan, shundan turkiy adabiyotda "Yusuf va Zulayho" haqida 50 ga yaqin asar yozilgan. Qul Alining "Qissai Yusuf", Nosiriddin Rabg'uziyning "Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom", Durbekning

"Yusuf va Zulayho" va Andalibning "Yusuf Zulayhoi turkiy" asarlarini bunga misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, Yusuf haqidagi qissalar genezisi ilohiy kitoblar – Tavrot, Zabur, Injil va Qur'oni Karimga bog'lanadi. Yusuf a.s. haqidagi dastlabki ma'lumotlar Tavrotning "Ibtido" nomli birinchi kitobida berilgan bo'lib, u haqidagi asosiy voqealar "Yusufning ko'rgan tushlari" qismida keltiriladi. E'tiborlisi Tavrotdagi va turkiy yusufnomalardagi tush episodlari o'zaro muvofiq keladi. Bundan farqli o'laroq ikkinchi ilohiy manba – Zaburda aniq sujet tilga olinmasdan qissaga ma'lum bir ishoralar keltirib o'tiladi. Yusufnomalarning ilhom manbayi bo'lib xizmat qiluvchi Qur'oni Karimning "Yusuf" surasida Misr hokimi bo'lmish Kutfiyning xotini Zulayho obrazi, uning Yusufga oshiq bo'lishi va visolga erishish yo'lidagi xatti-harakatlari boshqa manbalardagidan ko'ra ancha mukammal yoritilgan.

Adabiyot tarixida yaratilgan "Yusuf va Zulayho" dostonlari qiyosiy o'rganilganda, ular g'oyaviy jihatlariga ko'ra ikki turga: 1) ishqiy-tasavvufiy va 2) ishqiy-sarguzasht dostonlarga bo'linadi. Abdurahmon Jomiy va biz o'rganayotgan Olim Devona Samarcandiy dostonlari ko'proq ishqiy-tasavvufiy sifati hamda tasviriga ko'ra Zulayhoning Yusufga bo'lgan ehtiyojsi muhabbat tasvirlanganligi bilan xarakterlanadi. Hozirgacha bu turkum dostonlar ilmiy tadqiqotlar doirasiga tortilmagan va o'rganilmagan.

Olim Devonanining turli janrda yaratilgan ming misradan ortiq nazmiy javohirlari, Alisher Navoiy g'azaliga bog'lagan 1 muxammasi, XIX asr o'zbek dostonchiligidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan ajoyib nazmiy qissasi adabiyot ixlosmandlariga hali notanish. Shunga ko'ra, shoir nazmiy asarlari misolida ijodkorning hayoti va ijodi badiiyatini o'rganishga adabiyotimizda katta ehtiyoj bor. Shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda biz o'z tadqiqotlarimiz davomida dostonning quyidagi xususiyatlarini o'rganishni maqsad qilib oldik:

- 1) "Ravzayi asror"ning yusufnomalar tadrijiy takomilida tutgan o'rni;
- 2) asardagi hamd va na'tlar badiiyati;
- 3) asar sujeti va arxitektonikasi;
- 4) dostondagi obrazlar poetikasi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati Prezidentimizning 2017-yil 24-maydag'i 2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada namoyon bo'лади.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mirzo Olim Devona Samarcandiy va uning "Ravzayi asror" dostoni adabiyotshunoslighimizning yangi ochilmagan bir sahifasi o'laroq o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Mirzo Olim Devona Samarcandiy. Ravzayi asror / Nashrga tayyorlovchi I.Sanayev. – Toshkent: Sharq, 2019.
2. Jabborov N. Jomiyning "Yusuf va Zulayho" asari turkiy tarjimasiga oid mulohazalar / Abdurahmon Jomiy. – Toshkent: Qo'lyozmalar instituti, 1997. 172–175-betlar.
3. Sanayev I. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Zarafshon vodiysi adabiy muhiti. – Toshkent: Tafakkur, 2009.



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxtatga olingan.

2023-yil.

11-sin.

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulkumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinsbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalar bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi vi mualliflarga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqllovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2023.25.11, da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Sharqli bosma tabog'i 6.0. "Arial" garniturasiga. 10, 11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma — Adadi 3550 nusxa. Bahosi kelihilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

L ANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

TAHLIL

Shahlo Hojiyeva. Pushkin va Cho'lpion	3
Gulhayo Bo'riyeva. Bolalar adabiyoti spetsifikatsiyasi	4
Zavqiyon Fayzullayev. Erondag'i turkiy adabiy muhit va Asriy Tabriziy	6
Baxtiyor Daniyarov. O'zbek tilini sohada qo'llash fanidan darslar sifatini zamonaviy texnologiyalar asoida ta'minlash	8

TILSHUNOSLIK

Nasiba Jakbarova. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi rivojlanishidagi asosiy nazariyalar	10
Nohida Mukhtorova. Teaching academic vocabulary to law students	11
Rustam Samandarov. Applikativ modelning murakkab sintaktik qurilmalar shakllanishidagi mavqeyi	13
Nigorakhon Ruzibaeva. Linguistic features of antithesis as a figure of speech	15

TARJIMASHUNOSLIK

Miraziz Rafov. Difficulties in simultaneous translation during interpretation	16
---	----

TA'DQIQOT

Mohira Xalikova. Yuca-dunyo va lifelong learning paradigmasi diskursida kompetentlik definitsiyasi	17
Dildora Turg'unova. Hayvon xatti-harakati ishtiroy etgan maqollarning lingvomental xususiyatlari	20
Oybek Toshmatov, Ahmad Yusuf Firdaus. Language teaching and learning processes: a focus on self-directed learning	22
Shahodat Raxmatullayeva. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida o'quv topshiriqlari ustida ishslash	24
Nasiba Erhanova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining "Til va nutq" markazida bolalar nutqini rivojlantirish muammolari	27
Kamola Ulug'murodova. O'zbek mumtoz she'riyatida Layli obrazi	29
Ruxsora Murodova. Mirzo Olim Devona va uning "Ravzayi asror" dostoni	32

METODIK TAVSIYA

Kim Yun Hoe, Sadokat Khojieva. A study of the consonant pronunciation patterns of Uzbek Korean learners – focusing on intermediate learners	34
Nigora Sulaymonova. Eski o'zbek yozuvida ayn harfining o'ziga xos xususiyatlari	36
Sanobar To'rayeva. Iboralar orqali o'quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllanishish	38
Sarvinoz Sharipova. Ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonidagi muammolar va ularning yechimlari	40
Ziyada Djumanazarova. The importance of academic English in students' academic performance	42

KICHIK TADQIQOT

Mahbubaxon Temirova. O'zbek va qirg'iz paremik janrlari funksiyasi	43
Nigora Alisultonova. Chingiz Aytmatovni folklorqa qiziqitqagan omillar	45
Zarnigor Ramatshoyeva. Bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishning samarali usullari	46
Gulshodaxon Tojiboeva. Cho'lpion ijodida xotin-qizlar obrazining badiy-estetik xususiyatlari talqini	47

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Малоҳат Усмонова. Игры на уроках русского языка при изучении наречий.....	49
Беккенбауэр Реймов. Использование метода компонентного анализа английских фразеологизмов, характеризующих эмоциональное состояние человека.....	50
Нилуфар Мулаахунова. Развитие речи узбекских школьников средствами произведений искусства на уроках русского языка как иностранного.....	52

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Николай Ильин. Тема любви в лирике Чулпана	54
Феруза Иркабаева. Природный мир цикла М.А.Булгакова «Записки юного врача».....	55
Нилуфархон Юлдашева. Проблемно-тематическое поле в рассказе Ильдара Абузярова «Троллейбус, идущий на восток».....	56

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Фахриддин Абдурахманов. Трансформационно-дистрибутивный метод как модель интерпретации семантики предложного падежа	58
---	----

Светлана Им. Основные подтексты к исследованию агрессивного поведения	60
---	----

Шахзода Абдулаева, Шахноза Алимова, Алишер Мусулмонов. Использование технологий флешмоба в высшем образовании	62
---	----

Музаффар Ходжаканов. Сопоставительный анализ терминов маркетинга в русском и узбекском языках.....	65
--	----

Хусниябону Рахимова. Особенности сравнительного выражения в русских пословицах со сравнительной степенью наречия.....	69
---	----

Сабоҳат Курбанова. Особенности семантики орнитологических образов в русской поэзии XVIII-XX веков	72
---	----

Гульномоза Кодирова, Садокат Шонизевова. Тенденции и вызовы в области когнитивной лингвистики в постмодернистской перспективе	73
---	----

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Азиза Балтабаева. Читательская конференция как средство получения «серьезного Fun» на уроках литературы в иноязычных группах	75
--	----

Ферузакон Якубова. Внедрение технологии эдьютийнмента в образовательную систему как элемент успеха в обучении	76
---	----

Илина Сиддикова. Применение технологии сторителлинга на уроках литературы	78
---	----

ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Зулайхо Низомитдинова. Гендерные стереотипы в средствах массовой информации	80
---	----

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalar (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

jurnali

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

1991-yildan chiqsa boshlagan